Volume 04, Issue 11, 2026

TIL BIRLIKLARIDAN NUTQ BIRLIKLARIGACHA: LISONIY IMKONIYAT VA NUTQIY VOQELIK

Mustafayeva Marjona

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada til birliklari hamda nutq birliklarining o‘zaro munosabati, ularning lisoniy va nutqiy xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Til birliklarining lisoniy imkoniyatlari va nutq jarayonida voqelanish qonuniyatlari yoritiladi. Xususan, fonema, morfema, leksema va sintaktik qoliplarning nutqiy jarayonda tovush, qo‘shimcha, so‘z, so‘z birikmasi hamda gap shaklida namoyon bo‘lishi misollar asosida izohlanadi. Shuningdek, til va nutq munosabatidagi umumiylik va xususiylik, imkoniyat va voqelik, mohiyat va hodisa kabi falsafiy-lisoniy kategoriyalarning o‘zaro aloqasi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: til, nutq, lison, lisoniy birlik, nutqiy birlik, fonema, morfema, leksema, so‘z birikmasi, gap, lisoniy imkoniyat, nutqiy voqelik.

Abstract. This article examines the relationship between linguistic units and speech units, focusing on their linguistic and functional characteristics. It discusses the potential of language units and the patterns of their realization in speech. The manifestation of phonemes, morphemes, lexemes, and syntactic structures as sounds, affixes, words, phrases, and sentences is explained through examples. The article also analyzes the philosophical and linguistic categories of general and particular, potential and actual, essence and phenomenon within the relationship between language and speech.

Keywords: language, speech, linguistic system, language unit, speech unit, phoneme, morpheme, lexeme, phrase, sentence, linguistic potential, speech reality.

Аннотация. В статье рассматриваются взаимоотношения языковых и речевых единиц, их лингвистические и речевые особенности. Анализируются языковые возможности единиц языка и закономерности их реализации в речевом процессе. На примерах объясняется проявление фонем, морфем, лексем и синтаксических моделей в речи в виде звуков, аффиксов, слов, словосочетаний и предложений.

Особое внимание уделяется категориям общего и частного, возможности и действительности, сущности и явления в системе отношений языка и речи.

Ключевые слова: язык, речь, языковая система, языковая единица, речевая единица, фонема, морфема, лексема, словосочетание, предложение, языковая возможность, речевая действительность.

Til insoniyatning eng buyuk ma’naviy boyliklaridan biri bo‘lib, u orqali kishilar o‘z fikr-mulohazalari, his-tuyg‘ulari, dunyoqarashi va hayotiy tajribalarini ifodalaydi. Til jamiyat hayotida muhim o‘rin tutib, insonlar o‘rtasidagi asosiy aloqa vositasi hisoblanadi. U xalqning tarixi, madaniyati, urf-odatlari va milliy qadriyatlarini o‘zida mujassam etadi. Boshqacha aytganda, til imkoniyatlar majmui, nutq esa shu imkoniyatlarning muayyan vaziyatda voqelanishidir [1]. Til birliklari nutq jarayonida namoyon bo‘lib, insonlar o‘rtasidagi muloqotning mazmunli va tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi.

Til va nutq masalasi jahon tilshunosligida uzoq yillardan buyon o‘rganib kelinayotgan muhim nazariy muammolardan biridir. Bu borada shveysariyalik tilshunos Ferdinand de Sossyurning qarashlari alohida ahamiyatga ega. Olim tilni ijtimoiy hodisa, nutqni esa individual faoliyat sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, til jamiyat a’zolari uchun umumiy bo‘lgan belgilar tizimi bo‘lsa, nutq shu tizimdan foydalanish jarayonidir [2]. O‘zbek tilshunosligida ham til va nutq munosabati alohida tadqiq etilgan. Xususan, H. Ne’matov va R. Rasulov til tizimini sistem-struktur nuqtayi nazardan o‘rganib, til birliklari hamda ularning o‘zaro munosabatlariga e’tibor qaratganlar [3]. Til va nutqning o‘ziga xos jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- *Til – munosabat asosi; nutq munosabat ifodasidir.*

- *Til jamiyatda shakllangan; nutq esa har bir shaxs faoliyatida namoyon bo‘ladi.*

- *Tilning mavjudlik davri uzoq , ijtimoiy hayot bilan bog‘liq ; nutqning mavjudlik davri qisqa , u faqat aytilgan vaqtdagina mavjud.*

- *Til qat’iy , turg‘un hodisa bo‘lsa ; nutq o‘zgaruvchan harakatdagi hodisadir .*

Demak, til va nutq bir-biridan ajralgan holda mavjud bo‘la olmaydi. Til nutq uchun zarur imkoniyatlarni yaratadi, nutq esa tilning amaliy hayotini ta’minlaydi. 2. Lisoniy birliklar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari. Lisoniy birliklar til tizimining tarkibiy qismlari bo‘lib, ular inson ongida umumlashgan, muayyan ma’no va vazifaga ega bo‘lgan birliklar sifatida mavjud bo‘ladi. O‘zbek tilshunosligida lisoniy birliklar qatoriga fonema, morfema, leksema va sintaktik qoliplar kiritiladi [1]. Fonema – tilning kichik birligi hajmiga ko‘ra kichik ammo vazifasi katta, morfema va so‘zlarni tovush

jihatidan farqlaydi . Masalan, tol va bol so‘zlari birinchi tovush bilan farqlanadi. Bu holatda /t/ va /b/ fonemalari so‘zlarning ma’nosini farqlash vazifasini bajarmoqda. Morfema so‘zning tarkibiy qismi sifatida muayyan lug‘aviy yoki grammatik ma’no ifodalaydi. Masalan, kitoblarimizdan so‘zini tarkibiy qismlarga ajratsak, kitob – o‘zak, -lar – ko‘plik, -imiz – egalik, -dan – chiqish kelishigi ma’nosini bildiradi. Ushbu qismlar til tizimida ma’lum grammatik ma’nolarni ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Leksema – tilning lug‘aviy tizimiga mansub, muayyan tushunchani ifodalovchi lisoniy birlikdir. Leksemaning o‘ziga xosligi shundaki, u ham nutq birligi , ham nutq birligi bo‘la olishi , shunga ko‘ra murakkabligi bilan ajralib turadi.Masalan, kitob, inson, vatan, ilm kabi birliklar leksemalardir. Ular nutq jarayonida turli grammatik shakllarda qo‘llanadi*: kitobni, kitoblar, kitobimiz, kitobdan.* Demak, leksema til tizimida umumiy lug‘aviy birlik sifatida mavjud bo‘lib, nutqda muayyan grammatik shakl orqali voqelanadi. Sintaktik qolip esa so‘zlarning o‘zaro birikishi va gap hosil qilish imkoniyatini belgilovchi umumiy grammatik tuzilishdir. Bu birlik muayyan qolip, lisoniy formula , tayyor andaza sifatida tilga xosligi bilan xarakterlanadi. Masalan, o‘zbek tilida [ega + to‘ldiruvchi + kesim] qolipi asosida turli gaplar tuzilishi mumkin: Talaba kitob o‘qidi, O‘quvchi she’r yodladi. Bu gaplar mazmunan farqlansa-da, ularning sintaktik qurilishida umumiy qolip mavjud. Shunday qilib, lisoniy birliklar nutq jarayonida turli shakllarda namoyon bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lgan til tizimining asosiy unsurlaridir. 3. Nutq birliklari va ularning voqelanishi. Nutq birliklari lisoniy birliklarning real muloqot jarayonida moddiy shaklda namoyon bo‘lishidir. Ular so‘zlovchining kommunikativ maqsadi, nutq vaziyati va ifoda uslubiga qarab turlicha shakllanadi. Z. Xolmanovaning “Tilshunoslik nazariyasi” darsligida til va nutq birliklari o‘zaro qiyosiy tarzda izohlanib, fonema – fon, morfema – morf, leksema – leks munosabatlari ko‘rsatiladi. Shuningdek, sintaktik qoliplarning nutqda so‘z shakli, so‘z birikmasi, gap va matn ko‘rinishida namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi [1]. Nutq birliklarining asosiy ko‘rinishlarini quyidagicha izohlash mumkin: Tovush – nutqning eng kichik birligi bo‘lib, fonemaning nutq jarayonida talaffuz orqali yuzaga chiqadigan konkret ko‘rinishi hisoblanadi. Masalan, gul so‘zidagi /g/, /u/, /l/ fonemalari talaffuz jarayonida muayyan tovushlar sifatida namoyon bo‘ladi. Qo‘shimcha – morfemaning muayyan so‘z tarkibida qo‘llanadigan shaklidir. Masalan, ishchilar so‘zidagi -chi va -lar qismlari so‘z yasash hamda grammatik shakl hosil qilish vazifalarini bajaradi. So‘z – nutq jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, leksemaning nutq jarayonida muayyan grammatik shaklda qo‘llanishidir. Masalan, *vatan leksemasi nutqda Vatanimizni sevamiz* gapida vatanimizni shaklida ishtirok etadi. So‘z birikmasi – nutqiy xosila sifatida til va nutq birliklarining – leksema va so‘zlarning nutq faoliyatida erkin birikuvidan hosil bo‘ladi Masalan, go‘zal tabiat, ilm olish, kitobni o‘qimoq kabi birikmalar nutq jarayonida

muayyan fikrning shakllanishiga xizmat qiladi. Gap –ifoda ,mazmun jihatlariga ega va nisbiy tugallangan fikrni ifodalovchi asosiy kommunikativ birlikdir. Masalan, Til – millatning ma’naviy boyligi gapida til haqidagi muayyan hukm ifodalangan. Nutq birliklarining o‘ziga xos jihati shundaki, ular muayyan vaziyatda aniq mazmun va kommunikativ vazifa kasb etadi. Bir xil lisoniy imkoniyatlardan foydalanib, turli mazmundagi nutqiy ifodalarni yaratish mumkin. 4. Lisoniy imkoniyat va nutqiy voqelik munosabati. Lisoniy imkoniyat va nutqiy voqeylik tilshunoslikning o‘zaro uzviy bog‘liq tushunchasidir . Ular tilning nazariy imkoniyatlari va amaliy qo‘llanishini ifodalaydi. Lison va nutq : imkoniyat va voqeylik. Lison umumiylik , mohiyat , imkoniyat va sabab xusiyatlariga ega . Nutq esa yakkalik, hodisa, voqelik va oqibat sifatida namoyon bo‘ladi . Lisoniy imkoniyat nutq uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, nutqiy voqelik esa shu imkoniyatlarning amaliy ko‘rinishidir. 5. Til birliklarining nutqda qo‘llanishi va kommunikativ ahamiyati. Til birliklarining nutqda voqelanishi insonlar o‘rtasidagi muloqotning asosiy shartlaridan biridir. So‘zlovchi o‘z fikrini ifodalash jarayonida til tizimidagi birliklarni tanlaydi, ularni muayyan grammatik qolip asosida birlashtirib maqsadiga mos nutqiy ifoda hosil qiladi.

Bu jarayon bir necha bosqichda amalga oshadi: Birinchi bosqichda so‘zlovchida muayyan fikr yoki kommunikativ maqsad shakllanadi. Ikkinchi bosqichda ushbu maqsadni ifodalash uchun zarur bo‘lgan leksemalar va grammatik vositalar tanlanadi. Uchinchi bosqichda tanlangan birliklar o‘zaro bog‘lanib, so‘z birikmasi va gaplarni hosil qiladi. Yakuniy bosqichda esa fikr og‘zaki yoki yozma nutq shaklida namoyon bo‘ladi. Masalan, Ilm insonni yuksaltiradi gapini olaylik. Ushbu gap tarkibidagi ilm, inson, yuksaltirmoq birliklari til tizimida mavjud bo‘lgan leksemalardir. Ular muayyan grammatik shakllar orqali o‘zaro bog‘lanib, yaxlit fikrni ifodalovchi gapni hosil qilgan. Demak, til birliklarining nutqda to‘g‘ri tanlanishi va o‘zaro munosabatga kirishishi fikrning aniq hamda tushunarli ifodalanishini ta’minlaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, til birliklari nafaqat axborot yetkazish, balki insonning estetik qarashlari, hissiy kechinmalari va shaxsiy fikrlarini ifodalash imkonini ham yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, til birliklari va nutq birliklari o‘rtasidagi munosabat til tizimining eng muhim nazariy masalalaridan biridir. Til insoniyat tomonidan asrlar davomida shakllantirilgan ijtimoiy hodisa bo‘lsa, nutq ana shu tizimning muayyan shaxs faoliyatida namoyon bo‘lishidir. Fonema, morfema, leksema va sintaktik qoliplar tilning lisoniy imkoniyatlarini tashkil etadi. Ularning nutq jarayonida tovush, qo‘shimcha, so‘z, so‘z birikmasi, gap va matn shaklida namoyon bo‘lishi tilning amaliy faoliyatini ta’minlaydi. Lisoniy imkoniyat va nutqiy voqelik bir-birini to‘ldiruvchi hodisalar hisoblanadi. Til nutq uchun zarur bo‘lgan birliklar va qonuniyatlarni taqdim

etsa, nutq tilning yashash shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois til va nutq birliklarini o‘zaro aloqadorlikda o‘rganish tilshunoslikning nazariy hamda amaliy ahamiyatini oshiradi. Mazkur munosabatni chuqur anglash, bir tomondan, til tizimining ichki qonuniyatlarini o‘rganishga, ikkinchi tomondan esa, og‘zaki va yozma nutqning aniqligi, mantiqiyligi hamda ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Spectrum Media Group, 2022.– B. 36-40

2. Sossyur F. de. Umumiy tilshunoslik kursi. – Toshkent,1999.–B. 217-236

3. Ne’matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.

4. Turdaliyeva D.S., Abbasova N.K., Toshmatova M.M. Til birliklarining badiiy nutqdagi imkoniyatlari // Innovative Development in Educational Activities. – 2022. – 1-jild, 5-son. – B. 280–284.

5. Abdullayev J. So‘z lisoniy birlikmi, nutqiy birlik? // Til va adabiyot ta’limi. – 2023. – 5-son.Ilmiy izoh: maqolada til birliklari va nutq birliklari tasnifi Z. Xolmanova darsligi asosida yoritildi.